



ORIENTAL JOURNAL OF HISTORY, POLITICS AND LAW

journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

THE CONCEPT OF THE TECHNOSPHERE AND ITS PHILOSOPHICAL CONCEPTUAL INTERPRETATIONS

Rustam Amonov

Lecturer

Uzbek-Finnish pedagogical Institute

Uzbekistan, Samarkand

ABOUT ARTICLE

Key words: objective universe, Technosphere, golden key, technological form, approach, Noosphere, technological processes, technology, material and spiritual blessing.

Received: 09.03.25**Accepted:** 11.04.25**Published:** 13.04.25

Abstract: this article philosophically analyzes the concept of the Technosphere that arose in the 21st century, its historical etymology, the golden key, functional parts of modern techniques and technologies, the functions of the technique. At the same time it is also revealed that a philosophical interpretation of the Technosphere as an element of the noosphere is also possible. At the same time, the philosophical interpretation of the Technosphere as an element of the noosphere is revealed on scientific and practical grounds.

TEXNOSFERA TUSHUNCHASI VA UNING FALSAFIY KONSEPTUAL TALQINLARI

Rustam Amonov

o'qituvchi

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti

O'zbekiston, Samarqand

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Obyektiv olam, texnosfera, oltin kaliti, texnologik shakl, yondashuv, noosfera, texnologik jarayonlar, texnika, moddiy va ma'naviy ne'mat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada XXI asrda vujudga kelgan texnosfera tushunchasi, uning tarixiy etimologiyasi, oltin kaliti, hozirgi zamon texnika va texnologiyalarni funksional qismlari, texnikaning vazifalari falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Shu bilan birga texnosferani noosferaning bir elementi sifatida falsafiy talqin qilish ilmiy – amaliy asoslarga ko'ra ochib berilgan.

ПОНЯТИЕ ТЕХНОСФЕРЫ И ЕЕ ФИЛОСОФСКИЕ КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ТРАКТОВКИ

Рустам Амонов

Преподаватель

Узбекско-Финляндский педагогический институт

Узбекистан, Самарканд

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: объективная вселенная, техносфера, золотой ключик, технологическая форма, подход, ноосфера, технологические процессы, техника, материальное и духовное благо.

Аннотация: В данной статье дан философский анализ понятия Техносфера, возникшего в XXI веке, его исторической этимологии, Золотого ключика, функциональных частей современной техники и техники, задач техники. При этом философская трактовка техносферы как элемента ноосферы раскрыта по научно – практическим основаниям.

Kirish.

“Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizatsiya qilish va yangilash muhim vazifamizga aylandi”[1]. Obyektiv olamda vujudga keladigan har bir narsaning boshlang‘ich asosi bo‘ladi. Birinchi bo‘lib ana shu boshlang‘ich asosni, uning barcha xususiyatlarini bilib olish tadqiqotning muvaffaqiyatli yakunlanishiga olib keladi. Madomiki shunday ekan, texnosferaning nimaligini anglatuvchi asosiy tushuncha “texnika” atamasi hisoblanadi. Bu tushuncha texnosferani falsafiy jihatdan anglab yetishning “oltin kaliti” hisoblanadi.

Asosiy qism.

“Texnika” yunoncha “technike – mohir, usta techne – san’at, mahorat” so‘zlaridan olingan bo‘lib[2], falsafiy jihatdan quyidagi ma’nolarni aks ettiradi.

Birinchi, murakkab texnik tizimlarni qamrab olgan buyumlar, asboblari, artefaktlar ya’ni yasalgan narsalar, faoliyatlar to‘plami;

Ikkinchi, ilmiy-texnik natijasida olib borilgan ilmiy ishlar, moddiy va ma’naviy yangiliklar va texnik mashinalarni yaratish va foydalanish natijasida tashkil topishga va moddiy ishlab chiqarishga, har tomonlama xizmat qilishga, ulardan keng ko‘lamda foydalanishga qaratilgan turli xil kombinatsiyasi;

Uchinchi, ilmiy bilimlar to‘plami – fan sohasi bunga ishlab chiqarishni ichki yashirin jihatlaridan tortib, to texnik sohalargacha bo‘lgan davrni ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Texnika sun’iy obyektlar ya’ni, inson tomonidan ishlab chiqilgan obyektlarni faoliyati orqali paydo bo‘lgan texnika va texnologiyalar yaratish uchun kerakli bilimlar to‘plamini bildiradi. Ammo texnikani bunday talqin qilish juda kengdir, chunki unga, masalan, inson faoliyati tomonidan yaratilgan

san'at obyektlari (musiqa, rasm, shariat) kiradi. Shuning uchun, texnikani falsafiy jihatdan baholash konsepsiyasiga ba'zi yangilanishlarni kiritish kerak. Bunda, asosan sun'iy obyektlar haqida gap ketganda texnika, avvalambor, har qanday maqsadlarga erishishga qaratilgan vositalar tizimi sifatida tushuniladi.

Nemis faylasufi K. Yaspers texnikani vositalar tizimi sifatida ko'rib chiqar ekan: "Maqsadga erishish uchun vositachilik vositalarini joriy qilishda texnika paydo bo'ladi. Nafas olish, harakat qilish, ovqatlanish kabi to'g'ridan-to'g'ri faoliyat hali texnika deb nomlanmagan. Faqatgina bu jarayonlar noto'g'ri bajarilsa va ularni to'g'ri bajarish uchun qasddan harakatlar qilinsa, ular nafas olish texnikasi va boshqalar haqida gapirishadi"[3],– degan edi.

Bu berilgan ta'rifga qo'shimcha qilib, mutafakkirlar tomonidan aytib o'tilgan quyidagi fikrlarni ko'rishimiz mumkin.

1) G. Zimmel va G. Spenserining fikrlariga ko'ra, u maqsadga nisbatan neytral hisoblanadi va uni tejash vositachisi sifatida ishlatilishi mumkin;

2) Gottl-Ottlilienfeldning fikriga ko'ra, "U tabiatni o'zlashtirish uchun muvozanatli usullar va yordamchi vositalar to'plamidir va ehtiyojlarni iqtisodiy qondirish va muayyan harakatlarning oldini olish uchun ushbu harakatlarni bajarish tartibi sifatida xizmat qiladi"[4];

3) K. Yaspersning so'zlariga ko'ra, "Bu bizning mavjudligimizni yengillashtirish va shakllantirishga xizmat qiladi"[5].

Shunday qilib, texnikani inson tabiatga bo'lgan faol munosabatidagi funksiyalari, ko'nikmalari, bilimi va tajribasini rad etgan holda tarixiy jarayon bo'lgan jamiyatdagi sistema sifatida sun'iy organlarini aniqlash mumkin. Bunday jarayon tabiatdagi mavjud dinamika, uning qonunlarini anglash va ulardan oqilona foydalanish orqali amaliyotga joriy qilish mumkin.

Inson texnik tizimlar orqali moddiy narsalar ustida faoliyatni amalga oshiradi. Har bir voqea-hodisalarni subyekt va obyekt bo'lgani kabi texnikada ham mavjud. Demak, texnika subyekt (yangilik yaratishni hal qiluvchi bosqichi va iqtisodiy tizim sifatida) va obyekt (bu biosfera va uning tarkibiy qismlari). Texnikaning eng muhim ko'zlagan maqsadi insonlarni ko'proq vaqtini ijod bilan shug'ullanish, ya'ni biror texnik yangilik yaratib, o'zining og'ir mehnatini yengillashtirish, muntazam bajarilayotgan jismoniy og'ir mehnatdan qutqarishdir.

Quyidagilarni hozirgi zamon texnikalarni funksional qismlarga kiritish mumkin.

- ishlab chiqish va xo'jalik jarayoni bilan bog'liq dastgohlar;
- ilmiy ishlar va ishlanma asosida kelib chiqqan qurollar, masalan mikroskop (spektrometr ya'ni spektr chiziqlarini yaratadigan asbob);
- tibbiy va tashxis qo'yish uchun ishlatiladigan tibbiy qurilmalar (qon analizatori, rentgen);
- jamoaviy va kundalik hayotga kerak bo'ladigan texnika, masalan telefon, televizor;
- uzoqni ko'zlab harakatlar qiluvchi texnika, masalan raketalar;

- aloqa va transport vositalari;
- boshqaruvchi mashinalar;
- ilm egallashga yordamlashadigan texnika.

Sohalariga qarab texnika harakatsiz (nofaol) va harakatdagi (faol) texnikaga bo'linadi:

Harakatsiz (nofaol) – texnika quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: transport va ishlab chiqarishning asosiy markaziy o'rni, ko'proq kimyo sanoatida; texnik asbob-uskunalar, ishlab chiqarish inshootlari, yer ostidagi aloqa vositalari, ma'lumotni tarqatuvchi texnik qurilmalari, masalan telefon, televideniya, radio va boshqalar. Moddiy madaniyatdan faolsiz ya'ni passiv texnikani har doim ochiq-oydin ajratib bo'lmaydi.

Harakatdagi (faol) – texnika quyidagilarni o'z ichiga qamrab oladi: qo'l kuchi bilan ishlatiladigan mashinalar, inson tafakkuri va hayot faoliyatiga zarur vositalari, oshxona buyumlari, ko'zoynaklar, maishiy texnika jihozlar (asboblari); mashinalar va uni boshqarish usullari. Yuqorida ko'rsatilganlar bugungi kunda jamiyatda va inson hayotida zarur narsalar hisoblanadi.

Endi texnikaning vazifalarini sanab o'tamiz:

- 1) texnika moddiy va ma'naviy ne'matlar, madaniy boyliklar paydo qiladi va saqlaydi;
- 2) issiqlik manbasini paydo qiladi, jamlaydi va ehtiyojlarni qondirishga sarflanadi;
- 3) ma'lumotlarga ishlov berish, saqlash;
- 4) vositalarini turli xil faoliyatda aql bilan joy-joyida ishlatish;
- 5) qo'riqlash xizmatini takomillashtirish.

Texnikaning shakllanishi iqtisodiy davrda vujudga kelgan emas, ehtimol texnikani vujudga kelish texnologiyasi va inson mehnatining qay darajada ekanligi bilan bir-biridan farqlanadi.

Jamiyat taraqqiyotiga texnikalarning ta'siri ijtimoiy-iqtisodiy holatlariga asoslanib foydalanishga bog'liq. Moddiy rag'batlantirib turish jamiyat texnikaning o'zidan-o'zi takomillashtirib boradi. Iqtisodiy, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa holatlar unga kuchli ta'sirini o'tkazib turadi.

Biroq jamiyatda texnikaviy takomillashish qonunlari jamiyat qonunlar ta'sirini kamaytirmaydi. Mantiqan fikr yuritadigan bo'lsak texnika rivojlanishi inson bilan texnikani o'zaro ta'sirini o'rganishdan kelib chiqadi.

Odam bilan tabiatni o'zaro ta'siri natijasida mehnat obyekti paydo bo'ladi. Bir tarafdin texnika tabiatning in'omi sifatida namoyon bo'lsa, ikkinchi tarafdin, insonning mehnat organlarining natijasidir. Har bir ilmiy izlanuvchilar texnikani sof inson ongini mahsuli ekanligini aytib o'tishadi yoki inson mehnat vositasi sifatida vujudga kelgan deb tushunadilar. Haqiqatda esa texnika va texnologiyalar haqidagi fikrlar biroz chetlashgan bo'lib, uni haqiqat deb tan olib bo'lmaydi, chunki, texnikaviy g'oyalar inson tushunchasida materiyalar birikmasi mahsulidir.

Tabiat bilan inson bir-biriga ta'siri texnika rivojlanishining asosi (boshlang 'ich nuqtasi) da paydo bo'ladi. Tabiiy va sun'iy jihatdan kelib chiqadigan ishchi organlar ikkita tamoyil asosida:

Birinchi asosi insonlar tarafidan texnikani birin-ketin almashtirish bilan, chunki bu tamoyilidan insonning sun'iy organlar yaratishda bir xil shaklda, ya'ni insonning moddiy va ma'naviy ehtiyojlariga muvofiq tabiatni shakllantirishdan oldingi vositalar sifatida vujudga kelgan;

Ikkinchi asosi o'rnini qoplash tamoyiliga asosan, texnikaning eng kerakliligi shundan iboratki, inson mehnatiga xarajat qilinadigan mablag'larni kamaytirishdan iborat.

Bu usul tabiiy mehnat organlarini andozalash uchun emas, balki ularning imkoniyatlarini oshirish maqsadida ishlab chiqilgan, shuning ekan texnikaning takomillashishidagi o'ziga xoslik, qiyosiylik va erkinlikni borligidir. Ammo texnika faqatgina insonning organlari tuzilishni to'ldirib boradi, shu bilan birga inson ham texnika tizimlarni to'ldirib boradi.

Texnika tabiat bilan jamiyat oralig'idagi kelib chiqadigan vazifalarni hal qiluvchi va insonlarga yetkazuvchi vosita sifatida ishlab chiqilgan, shu bilan birga insonlar tomonidan ishlatiladigan birlik bo'lganligi uchun, uni yig'ilgan inshoot deb nomlash mumkin.

Texnik birlik mukammalashib, yangi to'ldirilgan tarkibiy bo'laklar bo'lganligiligi sababli, bu birlik barcha ish qurolida va shunga o'xshash shaxsiy tarkibga ega bo'lganligi bilan muhim ahamiyatga ega.

Texnikaning rivojlanishini bosqichlarga ajratish ma'lum bir funksiyalarni insondan texnikaga almashtirgan shaklda bo'lsa, u odam va texnikani birlashtirishning texnologik usulida o'zgarishlar bo'ladi.

Uch bosqichdan iborat bo'lgan texnika tarixi quyidagilarni o'z boshidan kechirdi:

birinchidan, biologik termin sifatida odam, har bir ish quroli va aslahalarining moddiy asosi bo'lib, mehnat qurollari odamning ishlayotgan a'zolarini yashashini uzaytiradi va kuchiga kuch qo'shadi;

ikkinchidan, ishlash faoliyatining muhim qismi bu mashinadir. Inson faqat uni o'zining ongi bilan ishlab chiqqan texnik elementi bilan boyitadi, mehnat esa mexanizatsiyalashadi;

uchinchidan, umumiy ish qurolini bir xil - texnikaviy qurollarga aylangandan keyin, odam bilan texnika orasidagi erkin munosabat turini keltirib chiqarishi bilan mufassal ta'rif beradi.

Odam, mashina, texnika tizimi formulasi asosida harakat qilinadi.

Bu harakatda, texnika paydo qilishda insonda o'z aql-zakovatini amalga oshirishga shart-sharoit yaraladi. Bunda texnika insonning jismoniy holati bilan chegaralanib qolmaydi.

Texnikaning mukammalashishi faqatgina insonning texnika-texnologiya bilan bog'liq vazifalarini sinovdan o'tkazish bilan emas, balki tabiatda ro'y berayotgan voqea-hodisalarni texnologik jarayonlarga almashtirish bilan ham amalga oshirish mumkin. Insonlarning ilmiy-

texnikaga bag'ishlangan faoliyati shuni aniqladiki, o'z maqsadi yo'lida tabiatning ximik, fizik, mexanik xususiyatlaridan har-xil narsalarga ta'siri vositasi sifatida qo'llanilgan.

Hozirgi davrga oid texnikalarning mukammal holatga kelishi har vaqtdagidan ham ilm-fan taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi, hozirgi davrdagi texnologiyalarga qaraganda oldingi o'rinda turadi. Texnik yangiliklar XXI asr ro'y bergan yutuqlari bilan emas, balki ilmiy bilimlar orqali kelib chiqqan ko'nikmalar, bilimlarni qo'llash orqali amalga oshirish zarurligini anglatadi. Yangi mahsulotlarni tayyorlashni rivojlantirish zarurligi ilmiy tadqiqotlarni moddiy va ma'naviy tomondan qo'llab-quvvatlaydi va ma'lum bir maqsadga yo'naltiradi.

Ko'rsatilgan ma'lumotlardan kelib chiqib, "texnika" tushunchasining ijtimoiy falsafiy tahlili, ularning sintezi sifatida texnosferaning paydo bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishini ta'minlaydi.

Har qanday borliq mavjudlik va reallik shakllarida ko'zga tashlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda texnika reallik tarzda o'zini namoyon qiladi. Texnik mavjudlik aslida birinchi navbatda ma'naviylik-ideallik (maqsadlarni rejalashtirish, texnik obyektlarni, texnik ijodkorlik va boshqalar), ikkinchidan, moddiy (sotsiotexnik tizimlar faoliyati davomida loyihalarni haqiqatga aylantirish sohasi) faoliyat sohalarining birgalikdagi faoliyatining natijalari hisoblanadi. Bunda texnosfera texnik ijodkorlikning ideal darajasi bo'lgan texnik faoliyatning subyektiv tomoni, uning material – obyekt bilan dialektik birgalikda namoyon bo'lishiga bog'liqdir. Bu darajalarning bir-biri bilan bog'liq holdagini ijtimoiy-falsafiy tahlil natijasida faylasuflar va nabobatshunoslar namuna, andoza sifatida mazkur tahlilning obyektiv tomonini, ijtimoiy–gumanitar fanlar olimlari uning ma'naviy jihatlari muhimligini aytib o'tishgan. Aksariyat tadqiqotchilar texnik voqelikning bunday dialektik xususiyatini yaxlitlikdan iborat bo'lgan – texnosfera deb qaraydilar.

Hozirgi kunda "texnik reallik" va "texnosfera" tushunchalarini o'zaro bog'liqligini ta'kidlashda tadqiqotchilarning nuqtai nazari bir birlaridan farqlanadi. Bu xususda masalan, V.M.Rozin: "Texnosfera atamasini to'g'ri ishlatish zarur, chunki mavjudlikdagi real narsalarni talqin qilganda, garchand ular ajratilib ko'rsatilsa ham, biroq ularning bir butunlikda ekanligini unutmaslik kerak"[6],-degan fikrni bildirgan. Demak, V.M.Rozin texnik reallik va texnosferani mohiyatan bir narsa deb qaraydi.

Boshqa bir olim B.I.Ivanov esa "texnosfera" tushunchasi texnik reallik tushunchasiga qaraganda kengroq deb hisoblaydi. U texnosfera tarkibiga quyidagilarni "...obyektiv voqelikning moddiy sun'iy quyi tizimi (texnik reallik shaklidagi qurilmalar, texnologik jarayonlar, materiallar, mehnat texnikasi va subyektning mehnat ko'rinishidagi texnik harakatlari); o'zgartirilgan (o'zgartirilayotgan) tabiat elementlari; texnik faoliyat mahsulotlari (iste'mol tovarlari); loyihalashtirilmagan antropogen obyektlar; obyektiv reallikning sun'iy idealdagi quyi tizimi (texnik bilim shaklidagi belgilar tizimi), shuningdek, o'rganish, ishlab chiqish, yaratish, operatsiya

(dastur), foydalanish va uskunalar va texnologiyalar baholash qaratilgan texnologik faoliyati”[7],- kiritadi. Biroq, texnosfera tushunchasiga keng ma’nodagi mualliflik ta’rifini bermaydi.

V.R.Kotenko: “Texnosferani keng ma’noda texnologiya so’zi bilan tenglashtirgan holda bunda “texnosfera” atamasi texnik fan, “texnik reallik” esa falsafiy tushunchalar bo’lib, ular texnik voqelik tarkibidagi sohalar tizimiga kiradi”[8],- degan fikrlarni bayon qilgan. N.V. Popkova “texnosfera” tushunchasi haqida umumiy ma’lumot berib, “texnosfera elementlarini tizimli tahlil qilishning yo’qligi texnogen rivojlanishni falsafiy tahlil qilishning murakkabligini ta’kidlaydi”[9], A.D. Ioseliani, V.A. Kutryev[10] kabi olimlar esa texnosfera tushunchasini “tabiiylikdan sun’iylik” ni keltirib chiqarish jarayonining mahsuli sifatida tadqiq qilish kerakligini”[11] uqtiradilar. Bunday misollarni ko’plab keltirish mumkin.

Texnikalarning tez taraqqiy etish oqibatida yaratilayotgan texnologiyalar jamiyatga o’zining ta’sirini o’tkazishi oqibatida tabiat ehsonlaridan tayyorlangan vositalarning oddiy to’plamidan iborat bo’lgan yangicha olam texnosferaning vujudga kelishiga sabab bo’ldi. Bu esa inson hayoti davriyligini va me’yorlarini, fantaziyali tasavvurlarini, tilni va va boshqalarni o’zgartirgan holda inson zotining yumishlarini yengil qilishga yo’naltirilgan qulay yashash sharoitini vujudga keltirdi. O.V.Doljenko: ”Dunyoning yangi manzarasining xususiyatlarini tasvirlagan holda texnosferani ijtimoiy-madaniy makon konsepsiyasining ajralmas qismidir”[12] -degan fikrni bildiradi.

Bulardan tashqari texnosferani noosferaning bir elementi sifatida falsafiy talqin qilish ham mumkin. Shu jihatdan qaraganda texnosfera – bu:

- 1) hayot qatlamining inson ta’siri natijasida texnik va texnogen obyektlarga o’zgargan qismi;
- 2) inson zotining har qanday muhtojliklarini qondirish maqsadida texnik usullarning bilvosita va bevosita ta’siri ko’magida insonlar tarafidan o’zgartirilgan hayot qatlamining bir bo’lagi;
- 3) tabiat in’omidan iqtisodiy o’zaro almashinishida qatnashadigan tabiiy vositalardan foydalanish va ulardan foydalanishning amalda yopiq mintaqaviy-global texnologik tizimi, xullas tabiiy metabolism va energiya oqimidan ishlab chiqarish davrlari sifatida tadqiqiy tahlil qilish mumkin.

Bundan kelib chiqib, birinchi o’rinda, biosferaning ajralmas bo’lagi sifatida texnosferani kiritish mumkin. Aniqrog’i, biosfera butun insoniyatning texnika bilan shug’ullanishi uchun bevosita yoki bilvosita ta’sir ko’rsatmaydigan boshqa jarayonlarni ham qamrab oladi. Lekin, hozirgi vaqtda bunday qismlar juda kam. Tabiat va jamiyat hayoti ilmiy bilimlari orqali texnogen harakatchanligiga moslashmasligi uchun kelib chiqayotgan tabiatdagi o’zgarishlarning barcha jihatlarining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Ikkinchi o'rinda, so'ngi texnologiyalar faqatgina moddiy materiallarning emas, balki madaniyat belgisi sohasini ham tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday qilib, falsafiy, afsonaviy, ilmiy va boshqa belgilar orqali ham texnosferani ko'rsatib beradi.

Uchinchi o'rinda, axborot almashinuvi natijasida texnosferaning ta'rifi kelib chiqadi. Ushbu qarashni yaratishda texnosferaning zarur jihatlarini ko'rsatuvchi infosfera konsepsiyasi va axborot nazariyasi tomonidan asosiy ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan katta nazariya talab qiladigan axborot nazariyasi yaraldi. Bu orqali texnosfera hajmini yanada kengayib boradi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda texnosferani falsafiy tadqiq qilishning quyidagi asosiy yo'nalishlari borligini ta'kidlab o'tamiz.

1. Oddiy yondashuv. Texnogen shart sharoit umumiy darajadagi birligini rad qiladi. Bunga ko'ra "texnosfera" tushunchasidan foydalanish mumkin bo'lmagan holat deb qaraladi. Ushbu yondashuvning maqsadi texnogen shart-sharoitning alohida qismlarini keltirib chiqarish va ishlash qonuniyatlarini ko'rsatib berishdan iboratdir. Demak, bunda ijtimoiy amaliyotlar umumiy muhit mavjudligi mezoni bilan belgilanadi.

2. Texnotsentrik yondashuv. Ushbu yondashuv texnosferani texnogen shart-sharoitning birligini belgilangan tartibda takomillashuv yo'nalishlari bosqichida ochib berishi kerakligi bilan belgilab beriladi. Misol uchun, texnologik jarayonlarning birlashmasi va texnogen ta'sirlarning globallasuvi haqida ishlanayotgan ilmiy- tadqiqot ishlarining asosiy maqsadi tabiat va jamiyat taraqqiyotini kelajakdagi ahvoli, kelgusida texnik adolatni qo'llab quvvatlaydigan subyektiv omillardan alohida olib, amaliyotga tadbiiq etiladi, ayniqsa obyektiv qonunlarga sun'iy olam rivojlanishiga mos deb qarash mumkin.

3. Ekotsentrik yondashuv. Bu qarash texnogen shart-sharoitning birligini tabiatdagi global o'zgarishlarning manbai sifatida ochib beradigan "texnosfera" tushunchasidan foydalanish mumkin deb hisoblaydi. Unga ko'ra barcha texnik narsalar tabiiy jarayonlarga ta'siri asosida birlashtirilgan bo'lishi kerakligi alohida uqtiriladi.

4. Antropotsentrik yondashuv. Bu qarash texnosfera haqidagida qarashlardan oqilona foydalanishni zarur deb uqtirilgan, texnosferaning hamjihatligini hamma real texnik narsalarning genetik maqbul darajasida ko'rsatadi, natijada kishilarning bir-biri va tashqi muhitga aloqadorligini anglatadi. Bu tomondagi tadqiqotlarni asosiy maqsadi inson hayotidagi texnikaga oid o'zgarishlarni ziyonini qisqartirish yo'llarini aniqlash deb uqtirilgan.

Texnosfera – butun yer yuzida va fazoda yaralgan barcha faoliyat yuritayotgan va o'z faoliyatini tugatgan texnik obyektlar, ular ishlash natijasida kelib chiqqan barcha narsa-buyumlarni umumiy yig'indisidir. U quyidagilarni qamrab oladi: tuproq, suv, yer osti qazilma boyliklari, shudgorlash, o'rmonlarni kesish, suv havzalarini qurish, botqoqlarni suvini quritish; va boshqalar sababida paydo bo'lgan biogeotsenotik tarkiblar kiradi. Texnosfera insonning turmush

tarzini farovon kechishini ta'minlaydi, shart-sharoitlarini to'g'ri yo'lga qo'yishni ta'minlovchi voqelikdir.

Texnosfera – makon va zamonda ijtimoiy jihatdan uyushgan materiya harakatining texnologik shaklidir. “Texnologik shakl – bu ijtimoiy uyushganlarning makon va zamondagi tizimidir. Insonning mehnat va intellektual salohiyatini qoplash va kuchaytirishga qaratilgan texnik elementlar ko'rinishida paydo bo'lgan texnosfera asta-sekin nafaqat sun'iy yashash muhitini yaratadi, balki tashqi dunyo bilan moddiy-energiya almashinuvini amalga oshiradigan jamiyatning "fiziologik" tizimiga aylanadi”[13].

Xulosa.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, texnosfera gidrosferada ham, atmosferada ham rivojlanishiga juda keng ko'lamda shart-sharoit mavjud. Har qanday nisbatan alohida tizim sifatida, texnosfera ichki qonunlarga, strukturaga, vazifalar va evolyutsion rivojlanish qonunlariga asoslanib o'zini takonillashtirishga ega bo'lgan tizimdir.

Ongsiz tarzda insonlar tomonidan texnosferani o'z-o'zidan takomillashtirilishiga yo'l qo'yilishi bir qancha salbiy oqibatlarga olib keldi. Boshqacha aytganda, insoniyat tarixida texnosfera o'z-o'zidan rivojlanib, o'zi yashayotgan (biosfera)ning vositalari bilan chegaralangan. XX asrdan keyin, yangi ijodni kelib chiqishi bilan yangi vositalar yaxshilikka nisbatdan ko'proq yomonroq va zararli oqibatlarni keltirib chiqarmoqda. Texnikaning rivojlanishi keyingi vaqtlarda odamlarning yashash tarziga tahdid soladi. Shuning uchun kelajakda texnosferani uyg'un, inson aqlining ajralmas qismi sifatida qarash davr talabi bo'lib, uni sebyektning intellektual bilimi amalga oshirish zarur. Yetuk texnosferaning rivojlanishi texnik yaratuvchi obyekt sonining yanada ko'proq bo'lishiga va odamlarning doimgidek yashashiga qo'yiladigan cheklashlar va talablarini inobatga olgan holda yechiladigan texnik tizimlarning rivojlantirish va o'zgartirish vazifalari butunlay yangi sinflarining keltirib chiqarilishiga sabab bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 57.
2. Ўзбек тилини изохли луғати. 4-жилд. -Т., Ўзбекистон миллий энциклопедияси Давлат илмий нашриёти, 2008. - Б. 80.
3. Ясперс К. Введение в философию.– Минск:Пропилеи,2000. – С.109.
4. Radovan Richta. Civilization and the crossroads. Social and Human Implications o f the Scientific and Technological Revolution. Routledge Taylor & Francis group. -London and New york. October. 1968. -P.83.
5. <https://plato.stanford.edu/entries/jaspers/>

6. Розин В.М. От традиционной парадигмы образования – к но вой // Техническая эстетика, 1990. -№ 6. -С. 9-12.
7. Иванов Б.И. Философские проблемы технознания (методологические и социологические аспекты): автореф. дис. ... д-ра филос. наук. -СПб., 1997.
8. Котенко В.П. Философские проблемы современной научной и технической реальности: учеб. пособие. -СПб., 1999. - С.78.
9. Попкова Н.В. Техносфера как объект философского исследования: автореф. дис. ... д-ра филос. наук. -СПб., 2005. -С.24.
10. Кутырев В.А. Естественное и искусственное: борьба миров.- Н. Новгород, 1994. - С. 93.
11. Иоселиани А.Д. Теоретические и социальные основы техносферы. -М.: Перспектива, 2006. - С. 123.
12. Долженко О.В. Философия образования: дань моде или условие выживания? // Философия образования. -М., 1996.
13. Yaxshilikov J.Y., Muhammadiyev N.E. Texnika va information texnologiyalar falsafasi. -Samarqand, 2019. – В. 62.